



## TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING KREATIVLIK QOBILIYATINI NAMOYON ETISH BOSQICHLARI

*Raxmatov A'zam Ashur o'g'li*

*Shaxrisabz DPI o'qituvchisi*

*Muxiddinova Dilrabo Muxiddin qizi*

*Shaxrisabz DPI 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada Texnologiya darslarida o'quvchilarning kreativlik qobiliyatini namoyon etish bosqichlari va vositalari ko'rsatib o'tilgan bo'lib, shu orqali izlanuvchanlik, ijodiy tafakkur, bilish mustaqilligi, yangilik yaratish ko'nikmalarini shakllantirish yoritilgan.

**Tayanch so'z va iboralar:** Kreativlik qobilyati, Reproductiv-tavakkalchilik bosqichi, Ijodiy-izlanish tadqiqotchilik bosqichi, Kreativ novatorlik bosqichi, Ijodiy iste'dodlar, Interfaol ta'limga.

**Аннотация:** В статье показаны этапы и средства проявления творческих способностей своих учеников на уроках технологии.

**Базовые слова и фразы:** креативная способность, репродуктивно-рисковая стадия, креативно-исследовательская исследовательская стадия, креативно-новаторская стадия, творческие таланты, интерактивное обучение.

**Annotation:** The article highlights the stages and means of demonstrating the creativeness of students in the lessons of technology through which the formation of the skills of inquiry, creative thinking, independence of cognition, innovation is outlined.


**Base words and phrases:** Creativity capacity, reproductive-risk stage, creative-research research stage, creativity innovator stage, creative talents, interactive education.

**Vol. 1. Issue 4.**



Tarix va ijtimoiy hayot tamoyillari shuni ko'rsatmoqdaki, jamiyatning har tomonlama rivojlanishi va unda yuksak darajadagi hayot turmush tarzining qaror toptirilishi avvalo har bir mamlakatning porloq kelajagi, o'quvchilardagi ijodiy intellektual qobilyatini shakllantirishga bog'liq. Bilimli, iqtidorli bola nafaqat o'zining balki xalqning, millatning ham kelajagini belgilaydi. Shu bois, yuqori aqliy imkoniyatlarga ega bo'lgan iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va iqtidorini namoyish etish hamda yoshlar iste'dodini rivojlantirish borasidagi ishlar ko'lами kengaytirish pedagoglarni doimo izlanishga, zamon bilan hamnafas bo'lishga chorlaydi. O'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini namoyon etishda texnologiya darsining o'rni beqiyosdir. Texnologiya darslarida o'quvchilar nazariy bilimlar bilan birlgilikda amaliy bilimlarini ham shakllantirib boradilar. Qanchalik o'quvchida kreativlik qobiliyati yaxshi rivojlangan bo'lsa shunchalik yasayotgan buyumlari sifatli, aniq maqsad yo'lida qilinganligi bilan ajralib turadi. Biz kreativlik tushunchasiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak:

Kreativlik – bu o'quvchilarda yangi g'oyalarni yaratish, tafakkurning teranligi shu ma'noda bir xillikdan qochgan holatda, o'ziga xos, ijodiy iste'dodlarni namoyon etish hisoblanadi.



### 1-rasm. O'quvchilarda kreativlik qobiliyatini amalga oshiradigan sifatlar

O'quvchilarning boshqa qobiliyatlariga o'xshab kreativlik qobiliyati ham birdaniga rivojlanib yoki shakllanib qolmaydi. Texnologiya darslarida o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun quyidagi holatlarga e'tibor qaratish zarur:

- O'quvchilar tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvatlash;
- O'quvchilarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;
- O'quvchilar tomonidan mustaqil faoliyatini tashkil etishi uchun imkoniyat yaratish;
- O'quvchilarning qiziqishlariga e'tibor qaratish.

Shu jumladan kreativlik qobiliyatining rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan bir qancha omillar ham mavjud:

- O'quvchi o'zini tavakkaldan olib qochishi;
- Fikrlash va xatti-harakatlarda qo'polikka yo'l qo'yishi;



- Fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;
- Boshqalarga tobe bo‘lishi;
- Har qanday holatda ham faqat yutuqni o‘ylashi.

O‘quvchilarning kreativlik qobiliyatini rivojlantirishda interfaol ta’limning o‘rni alohida hisoblanadi. Interfaol ta’lim - o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqib, o‘quv jarayonini o‘zaro hamkorlik asosida tashkil etilgan munosabatlariga asoslangan o‘qitish metodlari tizimidir. Interfaol o‘itish jarayonida o‘quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish bosqichlari quydagicha tavsifланади.

- Reproduktiv-tavakkalchilik bosqichi. Bu bosqich o‘quvchilarda kreativ faoliyat, kreativ faollik va ijodkorlikka bo‘lgan moyillikni qaror toptirish, ta’limdagi innovatsion texnologiyalarning mohiyatini anglash va yangi g‘oyalarning tug‘ilishi, shakllanishi bilan ifodalanadi.
- Ijodiy-izlanish tadqiqotchilik bosqichi. O‘quvchilardagi izlanuvchanlik, ijodiy faollik, nostandard tafakkur, bilish mustaqilligi, yangilik yaratish ko‘nikmalarining shakllanishi bilan belgilanadi.
- Kreativ novatorlik bosqichi. Yaratilgan yangilikni amalda qo‘llash, baholash, tahlil qilish, ommalashtirish va uni keng tadbiq etish hamda istiqbolga yo‘naltirilgan strategik rejalarни tuzish bilan bog‘liq jarayonlarni o‘z ichiga oladi.



Ravonlik: ma'lum bir vaqt oralig'ida ko'plab fikrlarni ishlab chiqarish qobiliyati;

O'ziga xosligi: aniq taniqli, umume'tirof etilgan, oddiy yoki qat'iy belgilanganidan farq qiluvchi g'ayrioddiy, nostonart g'oyalarni ishlab chiqarish qobiliyati;

Sezuvchanlik: g'ayrioddiy detallarga sezgirlik, qarama-qarshilik va turli xil noaniqliklar, tezda bir fikrdan ikkinchisiga o'tishga tayyorlik;

Mo'tadillik: g'ayritabiyy konteksda ishlashga tayyor bo'lish, ramziy, birlashtiruvchi fikrlarga moyillik, oddiy va murakkab sharoitda ko'rish qobiliyati;

Rivojlanish: paydo bo'lgan g'oyalarni bat afsil ishlab chiqish, ularni sath va quyi tizimlarga aylantirish qobiliyati;

## 2-rasm. O'quvchilarda kreativlik sifatlarini oshiruvchi mezonlar

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak mакtab o'quvchilarining kreativlik qobiliyatini rivojlantirish uchun Texnologiya darslarida amaliy mashg'ulot jarayonida o'quvchilarga yasashlari uchun amaliy topshiriqlar berib fikrlashga undab, interfaol metodlardan oqilona foydalanib, o'quvchining har bir hislatlarini to'g'ri va aniq yoritib berib yaxshi hislatlarini yanada boyitib borish, salbiy hislatlarini yuqotish, o'rgangan bilimlarini amaliyotda qo'llashni ko'proq talab qilish, mustaqillik va masuliyatni o'zida his qilishni o'rgatish.

### *Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:*

1. Elmuratova D., Misirova N. "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" O'quv qo'llanma.-Guliston, 2021-161b.
2. Sharifxodjayev U., Norboyeva D. "PISA tadqiqotida kreativ fikrlashni baholash doirasi" Xalq ta'limi vazirligi-Toshkent, 2020-76 b.
3. Sharopova Z. "Ta'lim texnologiyalari" Darslik Toshkent.: "Navro'z" nashriyoti, 2019-340 b.